

## **INSON TAFAKKURI VA TAJRIBASININGBOQIYXAZINALARI MING YILLAR O'SHA SO'ZDA JAMLANADI VA ABADUL – ABAD YASHAYDI**

Abduhakimova Mohinur Abduqayum qizi

Buxoro viloyat Qorako'l tuman 34 maktab Ingliz tili o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu ilmiy ish hikoya sifatida gavdalantirilgan badiiy va ilmiy ish hisoblanadi. Asosiy obraz ushbu qizning hayoti haqida ijod qilingan.

### **ASOSIY QISM**

Men bolaligimdan bir qizchani bilardim. Qizchani ismi Shabnab bo'lib, bo'ylari kalta, sochlari uzun, qoshko'zlari tunde qora, kiygan kiyimlari o'ziga yarashardi. Ammo unga har qaraganimda ko'zlarini tubida qandaydir bir ma'yuslikni sezardim. O'zi hammani kuldirardi lekin, o'zi kulmasdi. O'zini hammani oldida bo'lsa ham yolg'iz his qilardi. Uning otasi mehmonxonada menedjir bo'lib ishlardi. Onasi esa kasalxonada bosh hamshira edi. Unda ikki ukasi ham bo'lib ularning ismi; kattasi Jamshid, kichigini ismi esa Bahodir edi. Ularning hech nimadan kamchiligi bo'lmasa ham qizchani juda qiynashardi. U har kun kech tushishi bilan o'zini o'lishini tilar, umuman yashagisi kelmasdi. U uydagilarni yoqtirmasdi, gaplashgisi ham kelmasdi. U faqatgina xayoliy do'sti bilan xayolan gaplashardi. Shu uchun hamma uni jinni bo'libdi deb o'ylardi. U tezroq katta bo'lishni va katta ishlarda ishlashni xoxlardi. Oradan 7 yil o'tib u o'zi xoxlaganidek o'qishga kiradi Toshkent Davlat tibbiyot institutiga. O'qishi davomida u har xil narsalarni o'rganadi. Kunlardan bir kun uning hayotida bir odam paydo bo'ladi. Ya'ni bir yigit. ismi Shohrux bo'lib, u qizchani shunchalar o'ziga maftun qilib oladiki hatto u uchun o'zini ham qurbon qilishga tayyor bo'ladi. Lekin qizcha hech ham o'ylamasdiki yigit uni bir kun kelib aldashini, tashlab ketishini xayolini bir chetiga ham keltirmasdi. Ammo kunlardan bir kun xuddi shu narsa sodir bo'ldi. Hali aytganimdek qizcha unga borlig'ini baxshida qilgandi. U Shabnamni tashlab ketdi. Shabnam ayriliqqa chidolmas, usiz bir daqiqa ham turolmasdi. Ammo bo'yida borligini bilib qolgach, Shohruxni har doimgi joyga qator chinorlar ostidagi anhor bo'yida uchrashishga ko'ndiradi. Shohrux rozi bo'lmaydi. Shabnam esa uni uyiga boradi. Soat tungi 8 lar atrofida Shohruxlarning darvozasi taqqillaydi. Shohruxning onasi magazinda ishchi, otasi esa zavodda ishlab nafaqaga chiqqan bo'lib, bir opasi va akasi ham bor edi. Opasini Shabnam va Shohruh tanishgan yili turmushga berishadi.

Akasi esa o'sha yili chet elga ishlashga ketgan bo'ladi. O'sha paytda onasi idishlarni yuvayotgan bo'ladi:

- Onasi: Shohruuuux
- Labbay oyi
- Qarachi kim kelibdi?
- Hozir.

Shunda darvozani ochgan edi hamki rangi oqarib ketadi.

- Kim ekan bolam?
- Menga ekan oyi
- Ketyapsanmi?
- Ha, hozir kelaman
- Tezroq kelgin bolam
- Xop oyi

U tashqariga chiqishi bn Shabnamni bo'g'ishga tushadi. Nafas yetmay qolgandan keyin uni qo'yib yuboradi.

- Nega kelding
- Sizga iltimos qilgandimku uchrashaylik deb..
- Men sen bn uchrashishni xoxlamayman yo'qol bu yerdan. G'ururing bormi o'zi senda? Men seni sevmaymaaaan!!! Eshityapsanmi? Sevmayman!!!

Shabnam ko'z to'la yoshlari bilan

- Axir sevaman degandizku, jonim qurbon degandizkuuuuu
- Yuragim ostida bolangizni ko'tarib yuribman

Shunda Shohrux ketayotib to'xtadi va unga qayrilib:

Eeeee. Bu gapinga kim ham ishonardi sen foxishani . xudo biladi bu bolangni kimdan orttirgansan?

Dediyu yo'lida davom etdi. Shabnam esa yum-yum yig'lagancha qaytib ketadi. Chunki u endi bu dunyoda hech kimga ishonish kerak emasligini, bu dunyo aldamchi dunyo ekanligini tushunib yetadi. Oradan 9 oy o'tib u farzandini dunyoga keltiradi. Ismini esa Azimsher qo'yadi. Bu vaqt oralig'ida esa Shohruhdan biror marta ham xabar bo'lmaydi. O'qishini tugatishga esa 1 yil qolgandi. Shu vaqt oralig'ida uyiga biror marta ham bormaganligi sababli otasi uni ko'rishga shaharga keladi. Shabnam turadigan kvartiraga keladi. Uy bekasi eshikni ochadi. Bu odam Shabnamni otasi ekanligini biladi. Uni uyga taklif qiladi.

- Shabnam qizim o'qishga ketgandi. Hali zamon kelib qoladi.

Hamida ayani bu gapi og'zida qolgan ham ediki bola yig'lay boshladi. Shabnamning otasi bolani yoniga bordi va unga 2000 so'm pul qistirdi.

- Opa bu kimni bolasi ? Buncha shirin bo'lmasa?

Qo'liga olib o'ytadi.

- Eee Ahmadjon bolam, qo'shnimizni bolasi Shabnam tushmagur pul topaman deb tinim bilmaydi pulga qarayapti men ham yonida qarashyapmanda.
- Exxx Shabnam tushmagurey. Men unga o'zingni ko'p urintirma desam ham bu ishlani boshlab qo'yibdida. Mana nega uyga bormayotgan ekan.

Shu payt eshikni qo'g'irog'i jiringladi.

- Shabnam bo'lsa kerak deya Hamida aya eshikni ochadi. Qarasa rostdan ham Shabnam kelgan bo'ladi. Qizim tezz ichkariga kir otang keldi.
- Rostdanmi aya?
- Azimsherni nima dediz?
- Qo'shnimizni bolasi dedim sen tezroq kirsangchi?

Shabnam ichkariga kirdi va otasini bag'riga otildi. Bo'g'ziga bir nima tiqildi yu dadasiga bildirmadi.

- Bolam seni shunchalar sog'indimki
- Menam dadajon.
- Nega o'zingni qiynab birovlarning bolasiga qarayapsan? Bir og'iz aytsang pul jo'natmasmasmidim bolam?

Aslida bu gaplar shunchaki rasmiyatchilik uchun ekanligini Shabnam bilib turardi.

- Rahmat dadajon. Sizni ovora qilgim kelmadi. Bu kechga qolasizmi dada?
- Yoq bolam Toshkentga ish bilan kelgandim ishlarimni bitirdim seni ham bir ko'rib ketay degandim. Mana seni ham ko'rdim sog'-omon ekansan. Endi ko'nglim xotirjam. Ketsam ham bo'ladi. Qani omin...
- Yog'e bolam o'tiring hali zamon ketarsiz?
- Yo'q opa. Boraqolay xizmatchilik. Boshliqladan gap eshitmay.
- Mayli bolam omadingni bersin.

- Xayr dadajon. Kelib turing.
- Mayli bolam sog' omon bo'l.

Dadasi ketdi. Kunlar ketidan kunlar o'tdi. Oylar ketidan oylar. Oradan besh yil o'tdi. Shu orada Shabnam o'qishni tugatib yaxshi kasalxonaga ishga joylashdi. Yaxshi yurak jarrohi bo'lib yetishdi. Azimsher ham 5 yoshga kirdi. Shabnam turmushga chiqmadi. Chiqishni xoxlamadi. Chunki erkak zotidan ko'ngli qolgandi. Hammani qarshiligiga qaramay Azimsherni ota –onasi o'lgan qarovsiz deb o'zini o'g'li qilib rasmiylashtirdi. O'z shahriga ya'ni Qo'qonga umuman bormasdi. Chunki borgisi kelmasdi. Ammo Azimsher katta bo'lgan sayin Shabnamni qulog'ini qomatga keltirib dadam qayerda deb so'rayverardi. Shabnam dadang u yoqqa ketgan, bu yoqqa ketgan deb aldashdan charchagandi. Kunlarning birida unga zudlik bilan jarrohlik xonasiga kelishini va operatsiya qilish kerakligi haqida xabar bo'ladi. Shabnam operatsiya xonasiga keladi va operatsiyani boshlaydi lekin operatsiya jarayonida bemorni yuragi ishdan chiqadi va vafot etadi.

- Bemorni kasallik varaqasini olib keeling hamshira
- Xop boladi Shabnam Shomurodovna

Kasallik varaqasini o'qigandan so'ng u odam Shohrux ekanligini va o'z qo'lida vafot etganligini biladi. Lekin u yig'lamadi, yig'lay olmadi.

## **XULOSA**

Qisadan xissa shuki qayerda bo'lmang avvalo o'zligingizni va kimligingizni unutmang. Chunki siz qiz bolasiz. Kingadur ko'ngil berishdan avval uning kimligini qanday insonligini bilishimiz kerak. Zero qiz bola ota onani yuzi, or - nomusidir. Biron ishga qo'l urushdan avval ota - onangizni ko'z oldingizga keltiring.